

QADIMGI XITOYDA JINOYAT VA JAZO MASALASI



Kaxarova Munira Maxamadjanovna

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi Xitoy davlatida jinoyat va jazo masalasi sulolalar davriga ko'ra tahlil qilingan. Xitoy jamiyatini tartibga solish uchun qonunlar hukumat amaldorlari tomonidan ishlab chiqilganligi va ilk Xitoyning aristokratik jamiyatlari qonunlari aholini nazorat qilishdan tashqari, zodagonlar orasida alohida martaba hamda tartiblarni saqlashga katta e'tibor berganligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, Xitoyda jinoyatchilar sodir etgan jinoyatiga qarab turlicha jazolangani maqolada batafsil ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jazo, inson, huquqbuzarlik, axloq, odob, jamiyat, qonun, madaniyat, huquq, norma, tizim, marosim, davlat, majburiyat, erkinlik.

ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В ДРЕВНЕМ КИТАЕ

Аннотация. В статье дается аналитический анализ проблемы преступления и наказания в Древнем Китае по династиям. Дается научное обоснование законам, разработанным правительственными чиновниками как для регулирования китайского общества и контроля над населением, так и для поддержания особых рангов и процедур среди знати. Подробно описывается, какие виды наказаний применялись к преступникам, в зависимости от совершенных ими преступлений.

Ключевые слова: преступление, наказание, человек, правонарушение, мораль, этикет, общество, закон, культура, право, норма, система, ритуал, государство, обязанность, свобода.

THE ISSUE OF CRIME AND PUNISHMENT IN ANCIENT CHINA

Abstract. This article provides an analytical analysis of the issue of crime and punishment in ancient China according to the dynasties. It is scientifically based on the fact that laws were developed by government officials to regulate Chinese society, and the laws of early Chinese aristocratic societies, in addition to controlling the population, paid great attention to maintaining a special status and order among the nobility. The article also details how criminals are punished differently in China depending on the crime they commit. Crimes committed within the family are also analyzed.

Key words: crime, punishment, human, crime, morality, etiquette, society, law, culture, law, norm, system, ritual, state, obligation, freedom.

Xitoy jamiyatini tartibga solish uchun qonunlar hukumat amaldorlari tomonidan ishlab chiqilgan. Xitoyning ilk aristokratik jamiyatlari qonunlarida aholini nazorat qilishdan tashqari, zodagonlar orasida alohida martaba va tartiblarni saqlashga katta e'tibor qaratilgan.

Qadim zamonlarda Xitoyda mustaqil sud instituti bo'lmasa-da, jinoyatlar va jazolar uchun bir qator normalar mavjud edi, masalan, Tang sulolasida qamoqxonalarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan muassasa "Dali ibodatxonasi" deb nomlangan. Huquqning rivojlanishi ham ko'proq jinoyat huquqi rivojlanishi bilan bog'liq

bo'lgan. Jinoyat huquqi qadimiy qonunlarning asosiy elementlaridan biri bo'lib, uning maqsadi odamlarning xulq-atvorini tartibga solishni kuchaytirish va ijtimoiy tartibni saqlashdan iboratedi.

Xitoyning jinoyat qonunchiligi tarixida jinoyatlar tasniflanmagan. Bitta jinoyat uchun bitta jazo tayinlangan. Jinoyat jazoni tizimlashtirish tendensiyasi Xitoyda ilk davrlarda paydo bo'lgan hamda jazo qo'llanilishi aholini qo'rqitish vositasi va ijtimoiy nazoratni ta'minlash sifatida amalga oshirilgan. Jazo tizimi rivojlanishining dastlabki bosqichi "jismoniy jazo", ya'ni jismoniy jarohatlar yetkazish hisoblangan.

Qadimgi Xitoy aholisi jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga past nazar bilan qaragan, hatto bunday kimsalardan nafratlanagan. Ko'chada duch kelib qolsa, uni haqoratlab, jirkanib, jamoasiga qo'shmagan. Natijada, jinoyat sodir etgan shaxs jamiyatdan ajralib, xoru zorlikda yashagan.

Xitoyda qadimgi "Qonun kitobi"dan boshlab, yaqinlargacha jinoyat harakatlar tabiati, mazmuni va og'irligiga ko'ra "O'n yovuzlik", "Yetti qotillik", "Olti buzqlik", ommaviy jinoyatlar, zino kabi bir necha og'ir jinoyatlarga bo'lingan.

Xitoy huquqshunoslik maktabi olimi Xan Fey Tsi hukmdor har doim hukumatning asosiy quroli sifatida jinoyat qonuniga va og'ir jazolarga tayanishi, shu bilan birga, axloqiy fikrlar va ijtimoiy mavqeni qat'iy istisno qilish kerakligini ta'kidlaydi. Legalist tafakkurining yana bir o'ziga xos xususiyati qonun oldida barcha teng bo'lishi shartligi edi.

Qonunchilik masalasida huquqshunoslar huquqbuzarlik uchun jazo tayinlashda hukmdor tomonidan qabul qilingan qoidalar oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishi, aholiga to'g'ri yetkazilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Xitoyning qadimgi yozma manbalariga ko'ra, jinoyat qonuni har bir sulola davrida

bo'lgan. Masalan, Orakul (Oracle) suyagi yozuvlari¹ ma'lumotlariga ko'ra, Shan sulolasi davrida nafaqat jinoyat qonunchiligi, balki sud tuzilmasi, qamoqxonalar, qiynoq vositalarini qo'llash amaliyoti mavjud bo'lgan. Jazolash bilan maxsus sud xodimlari shug'ullangan. Jinoyat sodir etgan shaxs butun oilasi bilan jazolangan. Chjou davrida esa og'ir jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan olovda yoqish jazo sifatida qo'llanilgan.

Jinoyat va jazo haqida Li Kuy, Shang Yang, Shen Dao, Guan Chjun kabi Xitoyning ilk huquqshunoslari tadqiqot o'tkazganlar. Mazkur olimlar konfutsiylik, mohism² va daoizm kabi boshqa tafakkur maktablariga qaraganda jinoyat bo'yicha ko'proq tadqiqotlarni amalga oshirgan. Masalan, huquqshunos Li Kuy tomonidan yozilgan "Qonun kitobi"da "o'g'irlik", "talonchilik" kabi jinoyatlar yoritilgan, "mahbuslar", "qamoqqa olish" atamaları qo'llanilgan. Li Kuy "podshoh uchun eng dolzarb siyosat o'g'rilar va qaroqchilarni yo'q qilishdir, shuning uchun uning qonunlari o'g'rilar va qaroqchilardan boshlanadi", deb hisoblagan.

Song sulolasi mutafakkiri Van Anshi boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovut jinoyatning asosiy sababi, deb hisoblagan. Agar bu sabab bartaraf etilmasa, jinoyatchilikka barham berib bo'lmayligini hamda muammoni hal qilish uchun islohotlar amalga oshirish zarurligini taklif qiladi. Sima Guang esa xalqning qashshoqligini ularning ahmoqligi va dangasaligi bilan bog'lab, boylarning kambag'allarga yuqori foiz stavkasi bilan qarz berishini ekspluatatsiya emas, balki yaxshilik deb hisoblardi. Kambag'al odamlar muhtojligi tufayli jinoyat qilishini ta'kidlaydi.

Huquqshunoslarning eng mashhur vakili Xan Fey bo'lib, uning jinoyat va jazo haqidagi fikrlari nihoyatda keng ilmiy tadqiq qilinadi. Bu uning tarixga materialistik va evolyutsion nuqtai nafari bilan bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari, Xan Fey noto'g'ri ijtimoiy boshqaruv yoki

¹ Oracle suyagi yozuvi toshbaqa qobig'i va hayvonlarning suyaklariga o'yib yozilganligi sababli shunday nomlangan.

² Qadimgi Xitoyda urushayotgan davlatlar davrida (miloddan avvalgi 479–221-y.) avj olgan nufuzli falsafiy, ijtimoiy va diniy oqim.

noto'g'ri qo'llanilgan jazolar ham jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkinligini yozadi.

Keyingi Xan sulolasi davrida mutafakkir Vang Chong mamlakatni boshqarishning ikkita strategiyasi borligiga ishoniradi: biri xalqni yaxshi tarbiyalash, ikkinchisi esa bilimni rivojlantirish. Vang Chong mamlakatdagi tartibsizlik odamlarning moddiy turmush sharoitiga bog'liq deb hisoblardi. Xalqning yeb ichishga ovqati, kiyishga kiyimi yetarli bo'lsa, jinoyatga qo'l urmaydi; aksincha bo'lsa jinoyat sodir etishi mumkinligini yozadi.

Konfutsiy ta'limotida jinoyat va jazo masalasi asosan ijtimoiy va axloqiy tartibni saqlashga qaratilgan. Uning fikricha, jamiyatda to'g'ri tartibni ta'minlash uchun hukmdorlar bilimdon va axloqli bo'lishi kerak.

Uning ta'limotiga ko'ra, jinoyatlarning oldini olish uchun ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va axloqiy tarbiyani rivojlantirish muhimdir. Konfutsiy jazoning o'rniga axloqiy ta'sir va tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlagan, chunki u jinoyatlarning oldini olishda samarali emasligini tushuntiradi.

Miloddan avvalgi 221-yilda Qin davlati nihoyat o'z raqiblari ustidan ustunlikka erishdi va shu tariqa Qin sulolasi tashkil topdi. Sulola muvaffaqiyatining sabablaridan biri eramizdan avvalgi IV asrda Lord Shang Yangning maslahati bilan keng qamrovli jinoiy va ma'muriy kodekslarning qabul qilinishi edi. Qonunlar davlat tomonidan yuklangan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun qattiq jazolarni belgilagan va umuman hamma birdek jazolangan. Ushbu bosqichda huquq Konfutsiy maktabi tomonidan ilgari surilgan axloqiy qadriyatlarga zid bo'lgan sof legalistik ruh bilan ajralib turardi.

Qadimgi Xitoyda jinoyatlar uchun har bir sulola davrida o'ziga xos tarzda jazo usullari qo'llanilgan. Sulolalar davridagi jinoyatlar qiyosiy tahlil qilinganda, aksariyatida toifalar bo'lib, jazolar tizimlashtirilgan. Ya'ni, jinoyatchilar sodir etgan jinoyatiga qarab turlicha jazolangan, qurolli talonchilik qilganga o'lim jazosi qo'llanilgan. Oilada o'g'irlik qilish eng og'ir jinoyatlardan biri hisoblangan, o'g'irlik miqdod-

riga qarab jazolar bambuk tayoq bilan 100 marta urishdan boshlanib, bo'g'ib o'ldirishgacha bo'lgan. Ko'plab jinoyatlar uchun jinoyatchilar okrugdan badarg'a qilish bilan jazolangan, bunday badarg'a qilish ko'pincha umrbod bo'lgan. Shuningdek, deyarli barcha jinoyatlar uchun jinoyatchilarning yonoqlari qizdirilgan dazmol bilan tamg'alab jazolangan sababli yuzlarida iz qolgan. Bu holat jinoyatchini jamiyatda noqulay ahvolga solgan. Odamlar jinoyatchilar bilan savdo-sotiq qilishni xohlamagan. Hattoki farzandlariga yomonligi yuqishi mumkin deb, jinoyatchi yoniga yaqinlashmasligini qattiq nazorat qilishgan.

Qadimgi Xitoyda eng og'ir jazo – boshni kesish hisoblangan, chunki Xitoyda bosh tana-ning eng olijanob, ya'ni asosiy qismi hisoblanib, uni kesish og'ir musibat va uyat sanalgan. Qotillik jinoyatini sodir etgan odamlarning boshi tanasidan judo qilingan.

Tang sulolasi davrida eng dahshatli jinoyatlar "O'n yovuzlik" deb nomlangan. O'n yovuzlik jinoyatlarining to'rtta asosiy toifasi bo'lgan. Birinchi toifaga imperatorga qarshi jinoyatlar, shu jumladan qo'zg'olon qilish bilan tahdid qilish kirgan. Shifokorning imperator uchun berilgan dori-darmonlarini qoidalarga rioya qilmagan holda ishlatgan bo'lsa, shifokorning noto'g'ri ishlashi deb ushbu toifaga kiritilgan va qattiq jazolangan. Keyingi toifa asosan davlatga xiyonat qilish jinoyatlaridan iborat edi. Bu toifaga davlat sirlarini sotish, boshliqni o'ldirish yoki shaharga xiyonat qilish kiradi. Poytaxt Luoyang shahrini An Lushandan qaytarib olgandan so'ng, Tang tomonlarni o'zgartirishni tanlagan va ularga qarshi kurashgan 200 amaldordan 39 tasini qatl etgan. Uchinchi toifaga oilaga qarshi jinoyatlar kiritilgan. Ushbu turkumga oila a'zosini o'ldirish, ularni qullikka sotish yoki oilaning kekxa a'zosiga tegishli yordam ko'rsatmaslik kiradi.

Tang sulolasi davrida korrupsiyaning olti turi – talonchilik, o'g'irlik, pul olish va pul berish, hadyalar olish, qamoqxonadagi korrupsiya jinoyatlariga ajratilgan. Ommaviy jinoyat deganda, mansabdor shaxslarning o'z xizmat vazifalarini

bajarish chog'ida sodir etgan jinoyati, ya'ni o'z burchini bajarmasligi tushunilgan.

Xitoyning Tang shahrida oxirgi so'zni xo'jalik boshliqlari aytgan va ular bu ijtimoiy tartibni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaridan kelganini qilganlar. Otaning o'g'lini qamchilashi odatiy hol hisoblangan, ammo o'g'il otasini ursa, u o'lim bilan jazolanishi mumkin bo'lgan. Shuning uchun qadimgi Xitoy tarixida otani tarbiyalovchi deb, ulug' inson sifatida qadrlashgan.

Yana bir toifa sehrgarlik va zaharlanishga qarshi jinoyatlar bo'lib, u "gu zaharlanish" deb ataladigan bir nechta qotillik uchun jazolarni o'z ichiga olgan. Gu qozonga qirg'ovul, chayon, o'rgimchak, ilon va qurbaqalarni solib, aralash-tirish orqali tayyorlanadigan zahar bo'lib, u bo'lajak qurbonlarga, asosan, mahbuslarga ovqat yoki ichimlikka qo'shib berilgan. Ichgan odamning ichki organlari tezda zaharlanib, qon qusishiga olib kelgan, so'ngra qiynalib jon bergan. Bu qiynab o'ldirish jazosi sifatida qo'llanilgan.

Qadimgi davrlarda Xitoy politsiyasi "Oltin qush qo'riqchilari" deb nomlangan. Agar "Oltin qush qo'riqchilari" jinoyatchini qo'lga olishga urinayotgan bo'lsa, qonunga ko'ra, jinoyatchining yaqinlari yordam berishga majbur edi. Agar jinoyatchi qurollangan bo'lsa va uni kuzatuvchilar o'ldirgan bo'lsa, ular qonuniy javobgarlikka tortilgan.

Qadimgi Xitoyda milodiy 754-yilda 1900 ta qamoqxona bo'lgan. O'sha paytda o'rtacha jazo yillar emas, oylar davomida qo'llangan. Lekin soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlar uchun bu har doim ham shunday emas edi. Ba'zi okruglar soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolagan. Hatto otasi jazoni o'tash vaqtida vafot etgan taqdirda o'g'illarini qamoq muddatini tugatishga majbur qilishgan. Boylar kambag'alardan alohida saqlangan va ularni qamoqxonadan qochishlari oson bo'lgan. Eng og'ir jinoyatchilar qochib ketmaslik uchun zanjirband qilingan yoki to'piqlaridan bog'langan. O'lim jazosiga mahkum bo'lgan erkak mahbuslar kangda saqlangan. Kangue – ikkita to'rtburchak, ikki yarim metrli taxtalardan yasalgan.

Taxtalarning har biri jinoyatchilarning bo'yniga birlashtiriladigan yarim doiradan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham mahbusning uxlash, hojatxonaga borish yoki qochish imkoni bo'lmagan. Odatda, barcha mahbuslar yog'och kishan taqishga majbur qilingan. Qamoqxonalar oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlanmagan. Mahbuslarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan oila a'zolari ta'minlashi kerak bo'lgan. Yaqinlari bo'lmagan mahbuslar ochlikdan qamoqxonalarda vafot etgan.

Tang qonunida besh xil jazo turi ajratilgan edi. Birinchi ikki tur jinoyatchini uch yarim fut uzunlikdagi ingichka tayoq bilan urishni o'z ichiga olgan. Jinoyatchilarning sonlari va orqalariga urilgan. Keyingi turi 1 yildan 3 yilgacha qamoq va to'rtinchisi surgun bo'lgan. Jinoyatchilar 1000 milya masofaga jo'natilgan va ishlashga majbur qilingan. Ular o'g'rilarni ham shu tarzda jazolaganlar. Eng og'ir jazo qatl bo'lgan. Tang qonunlariga ko'ra, bo'g'ib o'ldirish bilan jazolanadigan 144 jinoyat va boshini kesish bilan jazolangan yana 89 jinoyat turi mavjud edi.

Vaqt o'tishi bilan besh toifa jazoning turlari o'zgarib borgan. G'arbiy Xan sulolasi imperatori Xan Vendi (miloddan avvalgi 180–157-yillar) davrida tatuirovka qilish, burunni kesish, bir yoki ikkala oyog'ini kesish, kastratsiya va o'lim jazolari mavjud bo'lgan. Suy va Tang sulolalaridan keyin (milodiy 581–907-yillar), ular bambuk kaltaklar bilan savalash yoki tayoq bilan kaltaklash, qullik, quvg'in, o'lim yoki jismoniy jazoga o'zgartirilgan. Garchi beshta jazo Xitoy sulolalari jazo tizimining muhim qismi bo'lsa-da, ular qo'llaniladigan jazolashning yagona usullari emas edi.

"Qullar uchun beshta jazo" Xan imperatori Ven hukmronligi davrida Chunyu Tying ayolning iltimosiga binoan bekor qilindi va uning o'rniga "Kreflar uchun beshta jazo" belgilandi. O'lim jazosidan tashqari, qolgan to'rtta jazo qullarning tanalariga umrbod zarar yetkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, oddiy fuqarolar (erkaklar) bu jazolarga tortilgan. Xan sulolasidan boshlab o'lim hukmlari ijro etilishidan oldin imperator

tomonidan tasdiqlanishi kerak edi, bu “mahbuslar haqida xabar berish” deb nomlangan.

Tang sulolasi rasmiy ravishda o'lim jazosi uchun “qayta hisobot berish” tizimini o'rnatdi. Min va Qing sulolalari davrida imperator o'lim jazosiga hukm qilingan mahbuslarni “qaror qilgandan” so'ng, hibsxona boshlig'i jinoyatchilar saqlanayotgan joyga hujjat jo'natar, mahalliy hokimiyat esa hujjat olingan kundan boshlab uch kun ichida mahbuslarni qatl etishi kerak edi.

Barcha sulolalarda o'lim jazosini ijro etish vaqti bo'yicha aniq qoidalar mavjud bo'lgan. Hatto qishda ham katta qurbonlik tadbirlari, yangi va to'lin oy kunlari, o'sayotgan va so'natotgan oy, 24 quyosh davri, imperatorning tug'ilgan kuni, chiroqlar bayrami kabi kunlarda o'lim jazosi qo'llanilmagan. Song va Ming sulolalaridan beri bu odatlar o'zgarmagan. Tang sulolasi qonuniga ko'ra, o'limga mahkum etilgan mahbuslarni qatl qilish bir kun ichida Shenshi vaqtidan (taxminan 15: 00 gacha) oshmasligi kerak, keyingi avlodlarda qatl vaqti odatda tushga yaqin ijro etilgan. Qatl joyiga kelsak, rasmiy unvonga ega bo'lmagan oddiy odamlar, odatda, Min va Qing sulolalari davrida, asosan, maydonlarda va ochiq joylarda o'ldirilgan. Biroq, zodagonlar va saroy amaldorlari uchun o'lim jazosi aksariyat hollarda afv etilgan.

Qadimgi Xitoyda jazo davlat tomonidan jinoyatchilarga nisbatan qo'llaniladigan chora bo'lib, u hukmron tabaqa uchun o'z manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasi hisoblangan. Xitoyning qadimiy jinoiy jazo tizimining rivojlanish bosqichlari taxminan quyidagicha bo'lgan: birinchisi, Sya, Shang va Chjou sulolalarida jinoiy jazoning paydo bo'lish bosqichi, ikkinchisi, urushayotgan davlatlar davridan Vey, Jin va Janubiy va Shimoliy sulolalargacha bo'lgan davrda, uchinchi, to'liq hukmronlik qilish davrida; to'rtinchisi, Song, Yuan, Min va Qing sulolalarida jinoiy jazo tizimi nisbatan barqaror bo'lib, ko'p davrlar davom etgan.

Qadimgi jazo tizimi evolyutsiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyatning vahshilikdan ezgulikka o'tishi, jazo tizimi quldorlik

jamiyatida paydo bo'lishi, feodal jamiyatda rivojlanib, qonuniy tartiblash aylanganligini ko'rish mumkin. Bu evolyutsiya va bosqichma-bosqich taraqqiyot takrorlarga to'la bo'lsa-da, jinoiy tizimda qonun ustuvorligi va insonparvarlik tamoyillarining o'rnatilishi jarayonini aks ettiruvchi yo'nalish hech qachon o'zgar-magan.

Birinchidan, jazo evolyutsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning muqarrar natijasidir. Materialistik tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, ustki tuzilma sifatida jazo tizimining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga mos kelishi kerak bo'lgan. Vahshiy qullikka asoslangan jazo tizimi, albatta, yangi feodal jamiyati va yirik qishloq xo'jaligi hamda qo'lda ishlab chiqarish uchun ko'proq ishchi kuchi olish zaruratiga moslashmadi. Shuning uchun progressiv feodal ijtimoiy jazo tizimi deyiladi. Feodal avtokratik tuzum jamiyatdagi barcha shafqatsiz qonunlar manbaiga aylanganda, islohotlar muqarrar bo'lib, jazo tizimini zamonaviy tizimga aylantirish qonuni qaytarib bo'lmaydigan bo'lib qoldi.

Ikkinchidan, jazoning mohiyatiga ko'ra, bu davlatning o'zi va fuqarolari o'rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlash, fuqarolar erkinligi va ijtimoiy tuzum o'rtasidagi ziddiyatni tuzatish uchun zarur usuldir. Shuning uchun erkinlik va tartib jazo tizimining ikkita asosiy qadriyati bo'lib, hukmdorlar uchun hukmlarni shakllantirish, o'ldirish va ijro etishda boshlang'ich nuqta bo'lgan.

Turli davrlarda erkinlik va tartibning qadr-qimmatini tanlashga turlicha urg'u beriladi. Jamiyat yoki mamlakat ko'pincha tartibning qadr-qimmatini tanlashga e'tibor qaratadi. Shu sababli bu qullik va feodal jamiyatdagi jazo tizimi bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun tarixga marksistik materialistik qarashda insoniyatning har bir madaniy taraqqiyoti ozodlik sari qadam bo'lgan. Insoniyatning barcha tarixiy va hozirgi faoliyati erkinlikka intilish sifatida qaraladi. Demak, jazo tizimi evolyutsiyasi ham erkinlikka intilayotgan odamlarning harakatiga bog'liq bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir davrda hukmronlik qilgan huquqiy fikr hukmdorlarni jazolash, hukm qilish va qatl etishga ta'sir qiladi. Barcha davrlardagi jinoyat va jazo masalasi Konfutsiy ta'limotining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Jinoiy jazo tizimi hukmron sinfnin jazoni tushunishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ya'ni, jazoning maqsadi – hukmronlik bosqichining o'z mavqeini saqlab qolish va uning hukmronlik manfaatlarini mustahkamlash uchun muhim quroli bo'lishi hamda qonunni qanday qilib qayta ko'rib chiqilishidan qat'i nazar, insoniy qadriyatlardan ajratib bo'lmassligini asoslashdan iborat. Jinoiy jazo tizimi an'anaviy huquqiy tizimdan ajralmas hisoblanadi. Tarixning rivojlanishi bilan jazoning ta'sirchanligi o'zgarib boradi, chunki jazoning o'рни faqat jazolashning o'zgarishiga bog'liq

bo'lmaydi. Odamlarning tafakkuri rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, unda odamlarni jinoyat qilishdan to'xtatishga, jazolar adolatli bo'lishiga turtki bo'ladi.

Jinoiy jazolarni tizimlashtirish tendensiyasi qadimgi Xitoyda juda erta paydo bo'lgan va jazo qo'rqitish hamda rag'batlantirish orqali ijtimoiy nazorat qilish vositasi sifatida qaralgan. Jazo rivojlanishining dastlabki bosqichlarida eng keng qo'llanilgani "jismoniy jazo" bo'lganligi bilan Xitoy davlati va uning huquqiy tizimi tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Xitoyda jazo usullari legizm ta'lim asosida shakllangan bo'lib, unda jazo boshqaruvning asosiy vositalari sifatida qaralgan. Xullas, jazo usullari huquq tizimining rivojlanishida katta rol o'ynagan.

Foydalanilgan manbalar

1. Samatova H.S, Axmadjonov O'.M. Chet mamlakatlar davlat va huquq tarixi: O'quv qo'llanma. – T., 1960.
2. Axmadjonov O'.M. Eksploatator sinflar davlat va huquqining tarixiy tiplari: Leksiyalar matni. – T., 1969.
3. Muqimov Z. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo hamda o'rta asrlar davlati va huquqi tarixi): O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 1992.
4. Patrisiya Ebrey, Anne Uoltal, Jeyms Pale. Sharqiy Osiyo: madaniy, ijtimoiy va siyosiy tarix. Cengage Learning, 2008. – B. 40.
5. Charlz Xaym. Qadimgi Osiyo sivilizatsiyalari entsiklopediyasi. Infobase nashriyoti, 2004. – B. 270.
6. Maykl Lou. –Qin va Xan imperiyalari hukumati: miloddan avvalgi 221-220-yillar. Hackett nashriyoti. 2006. – B. 126.
7. Chjan Vensyan. Yurisprudensiya [M]. – Pekin: Oliy ta'lim matbuoti, 1999. – 227 b.
8. Крашенинниковой Н.А., Жидкова О.А. История государства и права зарубежных стран. Ч.1. Учебник для вузов. – М., 1998. – С.20.
9. Батыра К.И. Всеобщая история государства и права: Учебник. –М., 1998. – С.20–23.
10. Черниловский З.М. Всеобщая история государства и права. – М., 1996. – С.23–24.
11. Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi): Darslik. I qism. – T.: Adolat, 1999. – 323 b.